



BENCHMARKING LOYIHA – YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH VOSITASI SIFATIDA.

Anvarova Sadoqat

Annotatsiya: *ushbu maqolada benchmarking loyiha – yangi avlod darsliklarini yaratish vositasi sifatida ekanligi bundan tashqari, maqolada benchmarkingni ma'nosi va mazmuni darsliklar yaratishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *benchmarking, loyiha, tizimli-integratsion, kompetensiyaviy, modulli-kredit yondashuvlar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi*

Jahon miqyosida fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanishi interfaol ta'limning muhim vositasi sifatida yangi avlod darsliklarini yaratish, shaxsga yo'naltirilgan darsliklarda o'quv materiallarini tizimlashtirishning innovatsion didaktik indikatorlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Jahonning AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarida tizimli-integratsion, kompetensiyaviy, modulli-kredit yondashuvlar asosida yangi avlod darsliklarini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlariga muvofiq o'quvchilarda o'qish va matnni tushunish, kreativ fikrlash imkonini beradigan darsliklar yaratish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.

Dunyoda umumtali fanlaridan uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan yangi avlod darsliklarini yaratishning didaktik va metodik talablarini takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida darsliklarni yaratishning tashkiliy-funksional tuzilmasini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi avlod darsliklarida o'quv materiallarini tizimlashtirishda kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini to'liq xisobga olish, benchmarking metodini qo'llash asosida darsliklar yaratish bo'yicha integrativ talablarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi — to'g'risida" gi PF-4947-son, 2019 yil 29 apreldagi "Uzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Biroq umumta'lim fanlaridan kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion-pedagogik va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida zamonaviy darsliklarni yaratishning metodik asoslarining tadqiq



etilmaganligi, darsliklar sifatini baholashning obyektiv metodikasining ishlab chiqilmaganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish xususida ilmiy izlanishlar olib boriladi.

Xalqimiz madaniyatining rivojlanish tarixida pedagogik fikrlar taraqqiyoti, jumladan didaktik vositalarining mazmunan va shaklan takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etib, buningiz ta'lim-tarbiya soxasidagi — madaniy-ma'rifiy rivojlanishni aniq tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Darslik — DTS, o'quv dasturlari, metodik va didaktik talablar asosida belgilangan, milliy g'oya sindirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'lik yoritilgan. Tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan davlat nashridir. Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, ta'lim oluvchilarning yoshi va pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan darsliklari mavjud bo'ladi. Odatda, darslik o'quv fanining nomi bilan yuritiladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi”.

Odatda, darslik o'quv fanining nomi bilan yuritiladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi”

Ko'plab tadqiqotlarda “darslik” tushunchasiga xilma-xil ta'riflar berilgan:

“Darslik — Davlat ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari va rejalariga muvofiq. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tayanch bilimlar va o'quv materiallari tizimli bayon etilgan ma'lum bir fanni o'qitish uchun kitob”.

“Darslik — pedagogik tizimning to'rt elementi — ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar, o'qitish shakllari va ularni amaliyotga joriy etishga imkon beruvchi kompleks informatsion model”.

Darslikning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchilarga muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishga xizmat qiladi. Darsliklaridagi har bir o'quv materiali qiziqarli bo'lib, bir maqsadga, ya'ni, jamiyatda o'z o'zini rivojlantirishga qodir shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu bilan bir qatorda, darsliklar o'quvchi- yoshlarda ruhan tetiklik, aqlan komillik, axloqan poklikni ta'minlashi lozim.

Nima uchun darslik – pedagogik tizim modeli? Chunki pedagogik jarayon xar doim aniq boshqariladigan tizim doirasida amalga oshiriladi, darslik esa uzida pedagogik tizimning alohida xususiyatlari va tomonlarini aks ettiradi Afsuski, xozirga kadar olimlarimiz darslikdan pedagogik tizim modeli sifatida, ya'ni bulgusi o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish vositasi ekanligidan foydalanish-maydi. Shuni alohida kayd etish lozimki, darslik uz-uzidan pedagogik tizimni modellashtirmaydi va o'quv jarayoniga aylantirmaydi bo'larning hammasini pedagog darslikdan foydalangan holda amalga oshiradi.



Nihoyat, biz nima uchun darslik-pedagogik tizimning *axborotli* modeli deb atadik? Bu savolga javob sodda: chunki model axborotlarning ma'lum bayoni tarzda beriladi.

Shunday qilib, darslik avtonom ta'lim vositasi sifatida pedagogik tizim elementlarining axborotli modeli hisoblanib pedagogik jarayonni boshqarishni avtomatlashtirish uchun muljallangandir.

"Benchmarking" tushunchasiga berilgan ta'riflar asosida "Yangi avlod darsliklarini yaratishla benchmarking bu ilg'or ish tajribalarini o'rganish tahlil qilish, baholash, yechim va natijalarga erishish maqsadida o'zaro korporativ. xamkorlikni amalga oshirish "vositasidir", degan xulosaga kelindi.

Benchmarking kontsepsiyasining juda ko'p talqinlari mavjud. Ba'zilar buni raqobatbardoshlik kontsepsiyasining evolyutsion rivojlanishidan, boshqalar esa sifatni yaxshilash dasturi deb hisoblashadi, boshqalar buni Yaponiya yaponiyalik biznes amaliyotining ekzotik mahsuloti deb hisoblashadi. Eng qadimgi va eng taniqli ta'rif: "benchmarking - bu eng jiddiy raqiblarning yoki ularning sohalarida yetakchilik qilayotgan kompaniyalarning mahsulotlarini, xizmatlarini va ishlab chiqarish tajribalarini o'rganish va baholash jarayonidir".

Yangi avlod darsliklarini benchmarking vositasida yaratish nuqtai nazaridan uch maqsad va vazifasi, obyekt hamda subyekt ko'ra benchmarking turlari aniqlashtiriladi. Yangi avlod darsliklarini yaratish maqsadi va mazkur faoliyat turni takomillashtirishga ko'ra: strategik (yangi avlod darsliklarini yaratishning tayanch aspektlari), operatsion (subyektlarning extiyojlarini hisobga olgan holda darslikni yaratish jarayoniga o'zgartirishlar kiritish); benchmarking obyektlariga ko'ra: jarayonli (darslik yaratish bilan bog'lik barcha jihatlar: jarayonning o'zi, natija, resurslar), muammoga yo'naltirilgan; benchmarking subyektlari va xamkorlar bo'yicha: ichki va tashqi turlari belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: "IQTISODIYOT", 2019. - 3G5 bet.
2. Ergashxodjayeva Sh.J., Samadov A.N., Sharifxodjayev U.U., Ziyayeva M.M. Tarmoqlar va sohalar marketingi. Darslik. - Toshkent. Iqtisodiyot, 2G19 y. 136 bet.
3. Services Marketing Management. Third Edition. Peter Mudie and Angela Pirrie, 2GG6. - Published by Elsevier. 267 pages.